



AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQNI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Bank-moliya akademiyasi magistranti

Boboyeva Oynur G'ani qizi

Boboyeva_o@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada aylanmadan olinadigan soliqning o'ziga xos xususiyati keltirilgan bo'lib, bunda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari, ularga berilayotgan imkoniyatlarni, aylanmadan olinadigan soliqning ijobiy va salbiy tomonlari, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilari va ob'ektlari, aylanmadan olinadigan soliq stavkalari, O'zbekistonda aylanmadan olinadigan soliqqa doir o'zgarishlar va yangiliklar tahlil qilingan. Bundan tashqari aylanmadan olinadigan soliqning qo'llanilib kelinishi, soliqlarni yalpi ichki mahsulotdagi salmog'i iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy omillar bilan chambarchas bog'liq va ular bilan birgalikda o'zgarib turishi, Yangi soliqlar va yig'img'lar belgilanishi, Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarish xususida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Milliy daromad, soliqqa tortish, aylanmadan olinadigan soliq, aylanma, soliqlar va yig'img'lar, soliq kodeksi, soliq to'lovchi, soliq yuki, tadbirkorlik sub'yekti, soliq hisoboti, soliq imtiyozlari.

Annotation: This article presents a special feature of the turnover tax, which analyzes the tax payers on turnover, the opportunities given to them, the pros and cons of the turnover tax, taxpayers and objects on turnover, turnover tax rates, changes and innovations in turnover tax in Uzbekistan. In addition, the application of the turnover tax, the deduction of taxes in the gross domestic product are closely related to economic, social, political factors and, together with them, new taxes and fees are established, the promotion of the development of our country to a new, higher level is mentioned.

Keywords: National income, taxation, turnover tax, turnover, taxes and fees, tax code, taxpayer, tax burden, business entity, tax report, tax exemption.

Kirish

Soliq milliy daromadni bir qismi bo'lib, majburiy va qaytarib bermaslik printsipi asosida aholidan va yuridik shaxslardan davlat tomonidan o'z harajatlarini qoplash uchun olinadi. Iqtisodchi olimlarning fikricha, «Soliqda davlatni borlig'ini iqtisodiy ifodasi gavdalanadi» gi. Soliqlar jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir



bosqichida yuzaga kelib, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarini rivojlanishining natijasi hisoblanadi. Soliqlar davlatni kelib chiqishi bilan bog'liq. O'rganishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, jahon amaliyotida, shu jumladan respublikamiz soliq qonunchiligida aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash, to'lash, nol darajali stavka bo'yicha soliq solinadigan aylanmani aniqlash va soliqning o'rnini qoplash mexanizmlari murakkabligicha qolmoqda.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan turli xil soliq imtiyozlari berilmoqda. Xususan, davlat soliq qo'mitasi soliqlarni, shuningdek aylanmadan olinadigan soliqni belgilangan tartibda mol-mulknii garovga bermagan holda, kafilliksiz yoki bank kafolatisiz bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini taqdim etishga haqli ekanligi belgilandi (bundan daromad solig'i, ijtimoiy soliq, to'lov manbaida olinadigan foyda solig'i mustasno). Bu Soliq kodeksning 99-moddasiga kiritilgan o'zgartirishda o'z aksini topgan. Shuningdek, 100-moddaga kiritilgan qo'shimchaga ko'ra, faoliyatni 3 yildan ortiq vaqtdan buyon amalga oshirayotgan, soliqlarni o'z vaqtida to'lagan, ammo moliyaviy ahvoli soliq qarzini muddatida to'lash imkoniyatiga ega bo'lmagan manfaatdor shaxslarga soliqlarni bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi mumkin.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda. Bu borada, Davlat rahbari tomonidan 2022-yilda tadbirkorlar bilan o'tkazilgan «Ochiq muloqot»da belgilangan topshiriqlariga asosan 2023-yil 1-yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqni qat'iy belgilangan summada to'lash tartibi joriy etildi.¹

Bunda, soliq to'lovchilarga jami daromadi 500 mln so'mdan oshmaganda yiliga 20 mln so'mlik, jami daromad 500 mln so'mdan oshganda esa yiliga 30 mln so'mlik qat'iy belgilangan summada soliqni to'lashni tanlash huquqi berildi.

Shuni ta'kidlash joizki, mazkur tartib bo'yicha soliq to'lash ixtiyoriy hisoblanadi.

Ushbu tartibni tanlash tadbirkorlik sub'ektlari uchun quyidagi yengilliklarni yaratib beradi:

- hisobchi yollash shart bo'lmaydi (bunda hisobchiga to'lanadigan ish haqi xarajatlari qisqaradi), shuningdek tovarlar hisobini yuritish talab etilmaydi;

- soliq organlariga moliyaviy hisobotlar va aylanmadan olinadigan soliq hisoboti taqdim etish majburiyati yuzaga kelmaydi.

-bank hisobvarag'idan dividend tarzida yechib olinadigan mablag'lar soliqqa tortilmaydi.

¹ Mamanazarov A. (2003) "Soliq siyosati" Moliya: 118 b.



Aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy belgilangan summada to'lashning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Jumladan, aylanmadan olinadigan soliq to'lovchi kalendar yilning istalgan oyidan ushbu tartibga o'tishga haqli. Bunda, aylanmadan olinadigan soliqni umumiy tartibda to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab qaytiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Aylanmadan olinadigan soliq (oborot solig'i) Birinchi jahon urushi davrida Germaniya va Fransiyada joriy etilgan. Uni keyinchalik boshqa mamlakatlar ham qo'llay boshlagan.

Aylanmadan olinadigan soliq (oborot solig'i)ni kiritishdi fiskal maqsadlari: qo'shimcha mablag'larga bo'lgan talabani qondirish, byudjetning o'ta taqchilligini qoplashni nazarda tutilgan. Bu soliqdan keladigan mablag'ning o'sishi o'z-o'zidan ta'minlanadi. Bu esa inflyatsiya sharoitida narxlarning o'sishi hisobiga, shuningdek, xizmat ko'rsatish ob'ektlari kengayishi natijasida ro'y beradi. Avvalo korxonalar tovar aylanmasi narxi ko'ppog'onali (kaskadsimon) yoki kumulyativ deb ataluvchi usul bilan soliqqa tortilgan, ya'ni soliq ishlab chiqarishning yoki tovar aylanmasining har bir bosqichida (tovarning kompaniya ichida aylanishi bundan mustasno) olingan. Bunday tizim GFR, Belgiya, Avstriya va boshqa davlatlarda 1960 yillarning oxirigacha amalda bo'lgan. Ko'p martalab soliq solinishi to'lov operatsiya (muomala)larini qiyinlashtirgan, chunki bu juda ko'p hujjatlar yuritilishini talab qilgan. Rivojlangan mamlakatlarning ko'pchiligi o'tgan soliq solishning eng oddiy usuli: aylanmadan bir marotaba – ishlab chiqarish, ulgurji yoki chakana savdo bosqichidan ancha qo'lay stavka bo'yicha soliq olishdan iborat.²

Aylanma solig'ining boshqacha ko'rinishi ulgurji savdo bo'g'inida olinadigan soliq hisoblanadi. Bu soliqning ob'ekti tovar aylanishi va uni ko'tarasiga tovar oluvchi firmalarga sotish jarayonida namayon bo'ladi. Agar sanoat kompaniyalari ulgurji savdodan voz kechib, tovarlarni bevosita chakana tarmoqda sotsa, undan ularning aylanmalari ham sotib olingan molga solinadigan soliqqa tortiladi. Soliqning bu shakli Buyuk Britaniyada 1940 yildan, Shvesariyada 1941 yildan, Portugaliyadan 1966 yildan buyon qo'llaniladi.³

Bir qator mamlakatlar (Norvegiya – 1940 yildan buyon, Shvesiya – 1960 yildan buyon, AQShning ba'zi shtatlari, Kanada provinsiyalari) chakana savdoda sotilgan

² Yangiboev H.A., Aylanmadan olinadigan soliqlarni hisoblash tartibi, "Soliq va hayot" elektron ilmiy-ommabop jurnali 2023-yil 2-son

³ Пансков В.П. Налоговые льготы: сущность и определение. ЖУРНАЛ. ЭТАП: экономическая теория, анализ, практика. 2018.



mollarga soliq solish turidan keng foydalanadi. Soliq solinadigan ob'ekt – oxirigi iste'molchiga tovar sotish aylanmasidir.

Soliqning bu turini qo'llash kichik savdo korxonalari ko'psonli ekanligi sababli murakblashadi. 1960 yillarda aylanmadan olinadigan soliqning (oborot solig'i) boshqa bir ko'rinishi qo'shilgan qiymat solig'i keng tarqaldi (A.Mamanazarov, 2003).⁴

Rivojlangan mamlakatlarda aylanmadan olinadigan soliq (oborot solig'i)dan keng foydalanilishiga sabab uning nafaqat inflyatsiya jarayonida katta fiskal ahamiyatga ega ekanligi, balki undan ishalab chiqarish jarayoniga ta'sir qilish uchun foydalanish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (2019) 461-moddasiga asosan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilar soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari hamda soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining (2019) 469-moddasiga asosan aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilarni kalendar yil bu soliq davri hisoblansa bir oy hisobot davri hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotimiz metodologiyasi bo'lib, aylanmadan olinadigan soliqning iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi. Aylanmadan olinadigan soliqning nazariy masalalar umumlashtirildi. Tadqiqot jarayonida amaliy materiallarni taqqoslash va guruhlash kabi usullardan foydalanilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi «Kichik korxonalar uchun ixchamlashgan soliqqa tortish tizimiga o'tishni qo'llash

⁴ Isaev F.I. "Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish". i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2019 yil. 116 bet.



to‘g‘risida»gi 159-son qaroriga asosan mikrofirmalar va kichik korxonalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibidan soddalashtirilgan, ya‘ni ixchamlashtirilgan soliq rejimiga o‘tkazildi. Bunda kichik korxonalar uchun yagona soliq to‘lash yoki umumbelgilangan tartibda soliq majburiyatlarini bajarish ixtiyoriy ekanligi qat‘iy belgilandi.⁵

Mikrofirmalar va kichik korxonalarni jadal rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish hamda uning mamlakat iqtisodiyotida ahamiyati va ulushini tubdan oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-3620-son farmoniga muvofiq 2005-yilning 1-iyulidan boshlab O‘zbekiston soliq tizimi amaliyotida kichik biznes subyektlarining ba‘zi toifalari uchun yagona soliq to‘lovi joriy qilindi.

2020-yil 1-yanvardan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining kuchga kirishi bilan yagona soliq to‘lovi o‘rniga aylanmadan olinadigan soliq joriy etildi. Aylanmadan olinadigan soliq iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra bevosita soliq bo‘lib, amaldagi Soliq kodeksining 461-470 moddalariga muvofiq undiriladi.⁶

Soliq kodeksining 461-moddasiga muvofiq, aylanmadan olinadigan soliqni to‘lovchilar deb quyidagilar e‘tirof etiladi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so‘mdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so‘mdan oshgan, lekin bir milliard so‘mgacha bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

Aylanmadan olinadigan soliq quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

- O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib kirishni (importni) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga;

- aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlarni (xizmatlarni) ishlab chiqaruvchi va foydali qazilmalarni kavlab olishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

- yuridik shaxslar — qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilariga, basharti ularda ellik gektar va undan ortiq sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi ekin maydoni mavjud bo‘lsa;

- benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

⁵ Mamanazarov A. (2003) «Soliq siyosati» Moliya: 118 b

⁶ O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2020.



- lotoreyalarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslarga;

- oddiy shirkat ishlarini yuritish o'z zimmasiga yuklatilgan ishonchli shaxsga — oddiy shirkat shartnomasi doirasida amalga oshirilayotgan faoliyat bo'yicha;

- bo'sh turgan binolar, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar va qurilishi tugallanmagan ob'ektlar, shuningdek foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlarining mulkdori bo'lgan yuridik shaxslarga, ulardan samarasiz foydalanilayotganligi bo'yicha qonunda belgilangan tartibda xulosa kiritilganda;

- markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalari hisobidan ob'ektlarni (joriy va kapital ta'mirlash bundan mustasno) qurishni bajaruvchi yuridik shaxslarga.

Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli. Ushbu soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli.

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi. Soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshganda, agar Soliq kodeksining 462-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tadi.

Yangi tashkil etilgan yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran tadbirkorlik faoliyati sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tkazish chog'ida tanlangan soliq solish tartibini ko'rsatish orqali aylanmadan olinadigan soliqni to'lash tartibini tanlash huquqiga ega.

Yuridik shaxslar aylanmadan olinadigan soliqni qo'llashni Soliq kodeksining 237-moddasiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun va bir vaqtning o'zida aylanmadan olinadigan soliqni to'lashni rad etishga doir ariza berilgan oydan keyingi oyning 1-sanasi boshlab ixtiyoriy ravishda rad etishga haqli. Agar yangi tashkil etilgan yuridik shaxsda yoki yangi



ro'yxatdan o'tgan yakka tartibdagi tadbirkorda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad summasi ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar, 365 ga bo'lingan va ro'yxatdan o'tilgan sanadan to kalendar yil tugaguniga qadar bo'lgan kunlar soniga ko'paytirilganda bir milliard so'mga teng summadan oshsa, u holda bunday shaxslar ro'yxatdan o'tilgan yildan keyingi yildan e'tiboran qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lashga o'tadi.⁷

Vositachilik, topshiriq shartnomasi va vositachilik xizmatlari ko'rsatishga oid boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi soliq to'lovchilar, shu jumladan telekommunikatsiyalar operatorlari va (yoki) provayderlariga vositachilik xizmatlarini ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadni realizatsiya qilish bo'yicha umumiy aylanmadan (bitim summalaridan) kelib chiqqan holda aniqlaydi.

Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar qo'shilgan qiymat solig'i va foyda solig'ini to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) to'lashni nazarda tutadigan maxsus soliq rejimini tanlashga haqli. Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliq to'lashga navbatdagi soliq davridan boshlab o'tishga haqli. Aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tish uchun soliq to'lovchilar aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishi to'g'risida soliq hisobida turgan joyidagi soliq organini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda, biroq aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tilayotgan navbatdagi soliq davri boshlanishiga qadar o'n kundan kechiktirmay xabardor qiladi. Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko'rsatilgan soliq to'lovchilarning soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshganda, agar ushbu moddaning to'rtinchi qismida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, soliqning oshib ketgan summasidan aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tadi. Ushbu Kodeksning 461-moddasi birinchi qismi 2-bandida ko'rsatilgan yakka tartibdagi tadbirkorlar aylanmadan olinadigan soliqni to'lash o'rniga qo'shilgan qiymat solig'ini va foyda solig'ini to'lashga o'tishga haqli. Soliq solish tartibini tanlash uchun yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobida turgan joyidagi soliq organiga tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olgan daromadlari yuz million so'mdan oshgan sanadan besh kundan kechiktirmay, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda bildirishnoma yuboradi. Bildirishnoma ushbu moddaning

⁷ O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2020.



to'rtinchi qismida ko'rsatilgan muddatlarda taqdim etilmaganda yakka tartibdagi tadbirkor aylanmadan olinadigan soliq to'laydi.

Soliqlar soliqqa tortish obyektiga qarab to'rt guruhga bo'linadi:

1. Oborotdan olinadigan soliqlar.
2. Daromaddan olinadigan soliqlar.
3. Mol-mulk qiymatidan olinadigan soliqlar.
4. Yer maydoniga qarab olinadigan soliqlar.

Aylanmadan olinadigan soliqni to'lovchilariga quyidagilar kiradi:

1) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi bir milliard so'mdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari;

2) soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadi yuz million so'mdan oshgan, lekin bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar.

So'nggi uch yil ichida ushbu soliqdan tushumlar (YaST o'rniga joriy etilgan) sezilarli darajada kamaydi. O'sish dinamikasi salbiy - 82,9%. Bundan tashqari, soliqning umumiy tushumdagi salmog'i 1%gacha kamaydi. Aylanmadan olinadigan soliq tushumlari dinamikasiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatdi va ta'sir ko'rsatmoqda:

- soliq islohoti boshlanishi bilan aylanmasi yiliga 1 mlrd so'mdan ortiq bo'lgan kichik korxonalarni (ilgari YaST to'laganlarni) QQS va boshqa umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazish. Bu umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar sonining jiddiy o'sishiga (o'sish 19,4 baravar) va soddalashtirilgan tizim bo'yicha soliq to'lovchilar sonining nisbatan yuqori bo'lmagan (1,9 baravar) o'sishiga olib keldi;

- soliq islohoti boshlanishi bilan yuridik shaxslar - 50 gektar (2022 yildan - 25 gektar) va undan ortiq sug'oriladigan yer maydoni mavjud qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini yagona yer solig'i to'lash o'rniga aylanmadan olinadigan soliq to'lashga o'tkazish ham aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar sonining jiddiy oshishiga olib keldi;

- aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar soni qariyb ikki baravarga – 160 mingtadan 299 mingtaga oshganiga qaramay, har bir korxonaga o'rtacha tushum sezilarli darajada kamaydi – 2019 yilda bir korxonaga o'rtacha 12,5 mln so'm aylanmadan olinadigan soliq to'g'ri keldi, 2021 yilda – 5,5 mln so'mgacha kamaydi. Albatta, 2020 yilda boshlangan pandemiya aylanmadan olinadigan soliq tushumiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Ammo aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar sonining o'sishi va ushbu soliqdan tushumlarning sezilarli darajada kamaygani, bir tomondan,



to'lovchilarning bir qismi soyaga kirib, o'z daromadlarini ko'rsatmayotganini, boshqa tomondan, umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilarning bir qismi ularni to'lashdan bo'yin tovlash maqsadida o'z aylanmalarini kamaytirish va ko'rsatmaslikka hamda aylanmadan olinadigan soliqni to'lashga o'tishga intilishlarini ko'rsatadi. Yuqoridagi holatga Prezident Farmoni (2018 yil 29 iyundagi PF-5468-son) bilan belgilangan 1 mlrd so'mlik aylanma miqdorini qayta ko'rib chiqilmagani ta'sir etadi, Farmon bilan inflyatsiya darajasi va umuman respublikaning iqtisodiy ahvolini hisobga olgan holda ushbu miqdorni uch yilda kamida bir marta oshirish nazarda tutilgandi.⁸

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan soliqlar turiga aylanmadan olinadigan soliq kiritilmagan. Shu bilan birga, Soliq kodeksining 18-moddasiga asosan "aylanmadan olinadigan soliq" maxsus soliq rejimi sifatida belgilanib, unda ayrim soliqlarni to'lashdan ozod etish, pasaytirilgan soliq stavkalarini va boshqa soliq imtiyozlarini qo'llash nazarda tutilgan. Biroq, Soliq kodeksining 66-bobida aylanmadan olinadigan soliq rejimida to'lanishi ozod etilishi, stavkalari pasaytirilishi va imtiyoz berilishi belgilangan soliqlar yoritilmasdan, aylanmadan olinadigan soliq turi ko'rsatilgan hamda uni hisoblab chiqarish va to'lash tartiblari keltirilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, Soliq kodeksining 17-moddasiga "aylanmadan olinadigan soliq"ni soliq turi sifatida kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Soliq qonuchiligida, yangi ish o'rinlari yaratgan tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i amaldagi stavkasini 50 foizgacha pasaytirish me'yorlarin joriy etish.

Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yil yakuniga ko'ra rentabellik darajasini oshirgan korxonalariga nisbatan aylanmadan olinadigan soliqlar bo'yicha regressiv stavkalarni qo'llash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. 2020.
2. Mamanazarov A. (2003) "Soliq siyosati" Moliya: 118 b.
3. Qaror (2022) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022 yildagi «ochiq

⁸ Джалилов Р.Х. Нормативно-правовая база по порядку организации камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. Экономика и социум. №103. 2022.



- muloqoti»da belgilangan vazifalarni amalga oshirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-364-son.
4. Qonun (2022) “Soliq va byudjet siyosatining 2023 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining 30.12.2022 yil O‘RQ 812-son
 5. Qonun (2022) O‘zbekiston Respublikasining “2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ 813-son.
- Farmon (2022) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son.
6. Майбуров И.А. Налоги и налогообложение. Ред. 4-е изд. - М: 2011г. 558с
 7. Пансков В.П. НАЛОГОВЫЕ ЛЬГОТЫ: сущность и определение. ЖУРНАЛ. ЭТАП: экономическая теория, анализ, практика. 2018.
 8. Isaev F.I. “Soliq tahlili metodikasini takomillashtirish”. i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 2019 yil. 116 bet.
 9. Александров И. М. (2009) Налоги и налогообложение: Учебник / И. М. Александров. — 10-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательско- торговая корпорация «Дашков и К, 228 с.
 10. Aleksandrov I. M. (2009) Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik / I. M. Aleksandrov. — 10-ye izd., pererab. i dop. — М.: Izdatelsko- trgovaya korporatsiya «Dashkov i K, 228 s.
 11. Zavalishina I.A. (2005) Soliqlar: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma. T.: “Iqtisodiyot va huquq dunyosi” nashriyot uyi. -14 b.
 12. Баладина А.С. (2011) Анализ теоретических аспектов налоговых льгот и налоговых преференций // Вестник Томского государственного университета- №4(16)- С. 45-60.
 13. Слагода В.Г (2010) Краткий словарь экономических терминов / сост. – М.: ФОРУМ. – 128 с.
 14. Тютюрюков Н.Н., Тернопольская Г.Б., Тютюрюков В.Н. (2009) Налоговые льготы и преференции: цель - одна, а механизм - разный // Налоговая политика и практика. N 10. С. 18-23.
 15. Рахматullaeva F. (2016) —Soliq imtiyozlarining mohiyati va iqtisodiyotni rag‘batlantirishdagi roli. Moliya ilmiy jurnali №2/ 108 bet.
 16. Майбуров И.А. (2011) Налоги и налогообложение. Ред. 4-е изд. - М:558с.



17. Kurbanov Z., Akramov F. (2015) —Solliq imtiyozlarining moliyaviy hisobini takomillashtirish masalalari. Biznes-ekspert ilmiy jurnali №9
18. Ефимова Е.Г.,Поспелова Е.Б.(2014) Налоги и налогообложение: Учебное пособие. - М.: МИИР, - 235 с.
19. Милякова Н.В. (2008) Налоги и налогообложение. Учебник. 7-е изд. Перераб. И доп.– М.:ИНФРА, С.33 Milyakova N.V. (2008)
20. Normurzaev U.X. Solliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. 08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2022
21. Джалилов, Р. (2023). Совершенствование расчета льгот по налогу на добавленную стоимость. Economics and Education, 24(2), 272–278. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss2/a42.
22. Джалилов Р.Х. Нормативно-правовая база по порядку организации камерального контроля в Республике Узбекистан и ее значение. Экономика и социум. №103. 2022.
23. “Solliq va hayot” elektron ilmiy-ommabop jurnali 2022-2023-yildagi sonlari
24. <http://www.lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bazasi sayti
25. <http://www.mf.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti
26. <http://www.solliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo‘mitasi sayti
27. <http://www.stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi sayti
28. <http://www.mysolliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo‘mitasi sayti